INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK TARIX FANI O‘QITUVCHILARINING KASBIY-AXLOQIY POZITSIYASINI SHAKLLANTIRISH MODELI

Qabulov Sahob Abduqahharovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya Pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak tarix fani o‘qituvchining kasbiy-axloqiy pozitsiyasi shakllantirish modeli, pedagogik jarayondagi tutgan o‘rni, malakali kadr tayyorlashdagi muhimligi bayon etilgan. Integrativ yondashuv orqali tarix fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini ta’minlash, nazariyani amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, kasbiy-axloqiy pozitsiyani shakllantirishda muhim vosita sifatida ko‘rib chiqiladi. Bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarini tayyorlashda insoniylik, odamiylik, kasbga bo‘lgan sadoqat, burch va daxldorlik kabi kasbiy-axloqiy ko‘nikmalari, ijodiy yondashuvi va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatlari rivojlanishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: integrativ yondashuv, kasbiy-axloqiy pozitsiya, bo‘lajak tarix fani o‘qituchisi, fanlararo bog‘lanish, amaliy ko‘nikma, pedagogik-psixologik jihat.

“Ta’lim sifatini oshirish hamda ustoz va murabbiylarning mehnat va yashash sharoitini yaxshilash islohotlarimizning eng ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qoladi. Zero, Yangi O‘zbekistonda eng muhim soha – ta’lim, eng hurmatli insonlar – o‘qituvchi va murabbiylardir!”[1]

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv sharoitida nafaqat O‘zbekiston balki dunyo ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy vazifalardan biri — har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi, yuksak ma’naviyatli, fidokor shaxsni tarbiyalashdir. Albatta, bu vazifani amalga oshirishni o‘qituvchisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bevosita raqobatbardosh, yuqori malakali hamda madaniy saviyasi yuksak mutaxassislarni tayyorlash bilan maqsadga erishiladi. Zamonaviy mehnat bozori mutaxassisdan nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni, balki madaniyatli muloqot olib borish, jamoada ishlash, ijtimoiy mas’uliyatni anglash hamda axloqiy me’yorlarga amal qilishni ham talab etmoqda. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “1-oktyabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan soha vakillariga yo‘llagan tabrigi. 30.09.2025

shaxs shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim ijtimoiy shaxsdir. Shu sababli uning kasbiy-axloqiy pozitsiyasi yuqori darajada shakllangan bo‘lishi zarur.

Kasbiy-axloqiy pozitsiya — bu o‘qituvchining kasbiy faoliyatda amal qiladigan axloqiy qadriyatlari, prinsiplari, e’tiqodlari va xulq-atvor me’yorlarining majmuasidir. Ushbu maqolada o‘qituvchilarning kasbiy-axloqiy pozitsiyasini shakllantirishning pedagogik va psixologik asoslari tahlil qilinadi[1].

Nafaqat tarix fani fani o‘qituvchisi balki barcha sohalarning bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy-madaniy munosabatlarni rivojlantirish jarayonini takomillashtirish uchun o‘quv fanlari mazmunini integratsiyalash orqali kasbiy va madaniy bilimlarni uyg‘unlashtirish, munozara, keys stadi, loyiha va rolli o‘yinlar kabi interfaol ta’lim metodlaridan keng foydalanish bugunning asosiy talabidir. Kasbiy vaziyatlarni modellashtirish orqali real muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish, talabalarning mustaqil va ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda milliy qadriyatlar va madaniy me’rosni ta’lim jarayoniga tizimli ravishda singdirish maqsadga muvofiq, albatta. Bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy-madaniy munosabatlarni rivojlantirish masalasi kasbiy ta’lim pedagogikasining dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, mazkur jarayonni samarali tashkil etishda integrativ yondashuv muhim metodologik asos sifatida namoyon bo‘ladi, chunki u ta’lim jarayonini yaxlit tizim sifatida tashkil etish, fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirish hamda talabaning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta’minlashda asos bo‘ladi[2].

O‘qituvchilarning kasbiy-axloqiy pozitsiyasini shakllantirish — bu nafaqat bilim berish, balki shaxsiy namuna, qadriyatlar va ichki e’tiqodlar orqali amalga oshadigan murakkab jarayondir. Bu jarayon pedagogik va psixologik omillarning uyg‘unligiga asoslanadi.Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining kasbiy-axloqiy pozitsiyasini shakllantirish — bu pedagogika, psixologiya, tarixshunoslik va ijtimoiy fanlar kesishgan nuqtada amalga oshiriladigan og‘ir, tizimli bo‘lishi lozim bo‘lgan zanjirli mehnatdir[3]. Quyida ushbu jarayonning asosiy pedagogik-psixologik jihatlari yoritiladi.

Pedagogik jihatlar bu:

- O‘qituvchini tayyorlash jarayonida axloqiy qadriyatlar (halollik, adolat, mas’uliyat, hurmat) alohida o‘rin tutadi.
- Pedagogik dasturlar faqat nazariy bilim emas, balki axloqiy vaziyatlarni tahlil qilishni ham o‘z ichiga olishi kerak.
- Ta’lim muassasasidagi ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit o‘qituvchining axloqiy pozitsiyasini mustahkamlaydi.
- Rahbariyat va ustozlarning shaxsiy namunasi muhim rol o‘ynaydi.
- O‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qilib borishi (refleksiya) orqali kasbiy va axloqiy o‘sishga erishadi.
- Seminar, trening va metodik mashg‘ulotlar orqali o‘z ustida ishlash rag‘batlantiriladi.
- Pedagogik etika me’yorlari (o‘quvchiga hurmat, adolatli baholash, diskriminatsiyadan holi bo‘lish) tizimli o‘rgatilishi zarur.

Psixologik jihatlar bu:

- O‘qituvchining ichki motivlari (kasbga muhabbat, bolalarga mehr) uning axloqiy pozitsiyasini belgilaydi.
- Ichki motivatsiya tashqi nazoratdan ko‘ra barqarorroq ta’sir ko‘rsatadi.
- O‘quvchilarning his-tuyg‘ularini tushunish (empatiya) o‘qituvchining axloqiy qarorlarida muhim omil.
- Samarali muloqot o‘qituvchi-ob’ekt munosabatini ijobiy shakllantiradi.
- O‘qituvchi o‘zini “tarbiyachi”, “namuna” sifatida anglab yetganda, uning kasbiy-axloqiy pozitsiyasi mustahkamlanadi.
- Ijobiy “Men-konsepsiya” kasbiy ishonchni oshiradi.

---

[1] M.Axmedova, “Pedagogik kompetentlik”, O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2018.

[2] B.N.Saidova. “Bo‘lajak mutaxassislarda integrativ yondashuv asosida kasbiy-madaniy munosabatlarini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish”, maqola. Maktabgacha va maktab ta’limi ilmiy jurnali, 12-son, 2025-yil. 2820-bet

[3] Abdurazzoqova, M. “Kasbiy tayyorgarlikda zamonaviy uslublar”.–T.: 2023. O‘qituvchi.

• Stressni boshqarish ko‘nikmalari axloqiy buzilishlarning oldini oladi (masalan, asabiylashish, adolatsizlik).

• Emotsional intellekt bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi.

Mutaxassisning kasbiy faoliyati yaxlit xususiyatga ega bo‘lib, unda kasbning barcha jihatlari (ish joyi, faoliyat mavzusi, hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar, texnika, texnologiya, boshqaruv, moliya va boshqalar) amalga oshiriladi. Ta’lim texnologiyalarini joriy etishning dolzarbligi pedagogikada ishlab chiqilgan va amaliyotda qo‘llanilayotgan turli texnologiyalar o‘zining barcha ahamiyati bilan butun ta’lim jarayonini emas, balki uning alohida tomonlarini qamrab olishi bilan ham bog‘liq. Zero, modulli o‘qitish texnologiyasini tahlil qiladigan bo‘lsak, u fanning strukturasini o‘zgartirishni (modullarga bo‘lishni) o‘z ichiga oladi. O‘qitish usullari, vositalari va shakllari, bu texnologiyada ular hech qanday yangiliksiz faqat modulga bog‘langan. Ta’lim texnologiyalari o‘qitishning yangi vositalari va usullarini joriy etishni nazarda tutadi, ammo o‘qitishning maqsad va mazmuni o‘zgarishsiz qolmoqda. Shu bilan birga, har qanday fan bo‘yicha o‘qitish usullarini ishlab chiqishda, o‘quv jarayonining barcha elementlari (maqsadlari, mazmuni, usullari, vositalari va shakllari) loyihalashtirilganda, bizning fikrimizcha, turli xil texnologiyalarning qo‘llash sharoitini ta’minlash kerak.

O‘qituvchining kasbiy-axloqiy pozitsiyasi bu pedagogik bilimlar, shaxsiy qadriyatlar va psixologik barqarorlikning uyg‘unlashgan natijasidir. Uni shakllantirish uchun:

• tizimli pedagogik tayyorgarlik,

• ijobiy muhit,

• refleksiya va o‘z-o‘zini rivojlantirish,

• hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash zarur.

Integrativ yondashuv — bu turli fanlar va metodlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi orqali yaxlit bilim va kompetensiyalarni shakllantirishdir. Tarix o‘qituvchisini tayyorlashda tarixiy bilim + pedagogik mahorat, psixologik tushuncha + axloqiy qadriyatlar, nazariya + amaliyot uyg‘unligi bo‘lishi zarur. Natijada o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi va ijtimoiy yetakchi sifatida shakllanadi. Kasbiy-axloqiy pozitsiya — bu o‘qituvchining kasbga munosabati, axloqiy qadriyatlarga sodiqligi, pedagogik faoliyatdagi mas’uliyati, o‘quvchilarga nisbatan insonparvar yondashuvi demakdir. Bo‘lajak tarix fani o‘qituvchisi uchun bu ayniqsa muhim, chunki u: tarixiy haqiqatni xolis yoritishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirishi, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishi kerak. Albatta shu nuqtai nazardan o‘qituvchi Ta’lim mazmunini integratsiyalashtirishi (mashg‘ulotlarda falsafa, etika, madaniyatshunoslik elementlarini qo‘shishi, tarixiy voqealarni axloqiy tahlil qilish (masalan: adolat, javobgarlik, inson huquqlari)), Faol o‘qitish metodlari (masalan: muammoli ta’lim, case-study (tarixiy vaziyatlarni tahlil qilish), munozara va debatlar) ni qo‘llashni mukammal egallashi lozim. Bu metodlar o‘qituvchining mustaqil fikrlash va axloqiy qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Eng asosiysi bo‘lajak o‘qituvchi refleksiya va o‘z-o‘zini baholash (pedagogik kundalik yuritish, amaliyotdan keyingi tahlil, “men qanday o‘qituvchiman?” savoliga javob izlashi) ni xolisona bilishi lozim[1].

Hattoki, mahalliy olimlar ham tadqiqotlarida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy-madaniy munosabatlarini rivojlantirish masalasi muhim o‘rin egallashini alohida ta’kidlaydilar. Jumladan, buyuk ma’rifatparvar jadidchi Abdulla Avloniy ta’lim va tarbiyaning uzviyligini ta’kidlab, kasbiy faoliyatda madaniy va axloqiy mezonlarning ustuvor ahamiyatini asoslab bergan. Shuningdek, O‘zbekistonlik pedagog olimlar kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar asosida mutaxassis tayyorlash jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab kelmoqdalar. Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, integrativ yondashuv bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy bilimlar bilan bir qatorda madaniy muloqot, kasbiy etika va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Shu bois, mazkur yo‘nalishdagi ilmiy qarashlar tadqiqot mavzusining nazariy asosini tashkil etadi[2].

[1] Azizxodjayeva N. “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar”. – T.: «O‘qituvchi», 2008.

[2] E.Migranova, Sh.Pozilova “Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish” O‘quv qo‘llanma. T.: «Aloqachi», 2017 y.

Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ushbu talablarni hisobga olgan holda kasbiymadaniy munosabatlarni rivojlantirish muhim pedagogik vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy va kasbiy munosabatlarning samaradorligi mutaxassisning shaxsiy madaniyati, axloqiy qarashlari hamda muloqot kompetensiyasiga bevosita bog‘liqdir. Shu jihatdan, ta’lim jarayonida integrativ yondashuvni joriy etish bo‘lajak mutaxassislarda kasbiymadaniy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois bo‘lajak mutaxassislarda kasbiymadaniy munosabatlarni rivojlantirish masalasi pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etishda integrativ yondashuv muhim ahamiyatga ega. Integrativ yondashuv ta’lim jarayonini yaxlit tizim sifatida tashkil etish, fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirish hamda talabaning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy-axloqiy munosabatlarni rivojlantirish masalasi pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etishda integrativ yondashuv muhim ahamiyatga ega. Integrativ yondashuv ta’lim jarayonini yaxlit tizim sifatida tashkil etish, fanlararo bog‘liq likni kuchaytirish hamda talabaning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi[1].

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchining kasbiy-axloqiy pozitsiyasi ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. O‘qituvchi o‘z faoliyatida axloqiy qadriyatlarga amal qilgan holda yosh avlodni bilimli, ma’naviy yetuk va komil inson qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Integrativ yondashuv bu albatta, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy-axloqiy pozitsiyasini shakllantirishda eng samarali yo‘llardan biridir. U nafaqat bilim, balki qadriyat, tafakkur va shaxsiy fazilatlarni ham uyg‘un rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada jamiyatga yetuk, ongli va mas’uliyatli pedagoglar yetishib chiqadi. Bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining shaxsi rivojlanishining kasbiy, intellektual va axloqiy darajasiga nisbatan jamiyat talablarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini talabalarning ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatiga muvofiq tashkil etishni nazarda tutuvchi shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar har bir shaxsning o‘ziga xosligini anglash, talabaning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy-madaniy munosabatlarni integrativ yondashuv asosida rivojlantirish yuqori samaradorlikgarovidir. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonining yaxlitligini ta’minlab, talabalarda kasbiy bilimlar bilan bir qatorda madaniy, axloqiy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantiradi. Natijada zamonaviy jamiyat va mehnat bozori talablariga mos, madaniyatli va mas’uliyatli muta xassislarni tayyorlash imkoniyati kengayadi. Mazkur jarayonni takomillashtirish uchun ta’lim mazmunini integratsiyalash, innovatsion metodlardan foydalanish hamda tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “1-oktyabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan soha vakillariga yo‘llagan tabrigi. 30.09.2025
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyun “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-3775-son qarori.
3. B.N.Saidova. “Bo‘lajak mutaxassislarda integrativ yondashuv asosida kasbiy-madaniy munosabatlarini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish”, maqola. Maktabgacha va maktab ta’limi ilmiy jurnali, 12-son, 2025-yil. 2820-bet.
4. Samandarova, N. “Integrativ yondashuv– ta’limning yangi bosqichi”.– T.: 2023. Barkamol avlod, 172-б.
5. M.Axmedova, “Pedagogik kompetentlik”, O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2018.
6. Abdurazzoqova, M. “Kasbiy tayyorgarlikda zamonaviy uslublar”.–T.: 2023. O‘qituvchi,

[1] Shodiyeva, N. (2021). “Kasbiy rivojlanishda integratsiyalangan yondashuv”.– T.: Ilm nuri,

7. Ochilov M. “O‘qituvchining nutq madaniyati va pedagogik nazokat”. – T.: «O‘qituvchi», 2004.

8. Azizxodjayeva N. “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar”. – T.: «O‘qituvchi», 2008.

9. E.Migranova, Sh.Pozilova “Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish” O‘quv qo‘llanma. T.: «Aloqachi», 2017 y.

10. Muslimov N.A., Raximov Z.T., Xo‘jaev A.A., Yusupov B.E. “Ta’lim texnologiyalari”. O‘quv qo‘ lanma. Toshkent “Voris” nashriyoti – 2020. 192 b.

11. Qo‘ysinov O.A. «Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari» // T-2019, pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi.

12. Mamaraimova, G. “Modulli ta’lim va integratsiyalangan mashg’ulotlar”.– T.: 2023 O‘zbekiston,

13. Kamolova, Sh. O’qituvchi tayyorlashda fanlararo aloqalar.– T.: Ziyo, 2020.

Shodiyeva, N. “Kasbiy rivojlanishda integratsiyalangan yondashuv”.– T.: 2021.